



SANOAT MULKI OBYEKTLARIGA DOIR HUQUQLARNI BUZGANLIK UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING UMUMIY TUSHUNCHASI

Boboto'xtayev Sohijjon Abdusalim o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi, Ommaviy huquq
fakulteti tyutori*

abdusalimovich95@gmail.com

+998977410772

Annotatsiya: Sanoat mulki huquqlari buzilgan holatlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning dolzarbligi zarar ko'rgan tomonning huquqlarini tiklash va uni o'zi tomonidan berilgan zarar uchun kompensatsiya olishini ta'minlashdir. Bundan tashqari, huquq buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash, ko'riladigan jazo choralari, huquqni tiklash kabi munosabatlarni tartibga solish ham muhim ahamiyat kasb etadi

Kalit so'zlar: sanoat mulki, zarar, javobgarlik, taraflar, sanoat mulki, ixtiro, foydali model, sanoat namunalari.

ОБЩЕЕ ПОНЯТИЕ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАРУШЕНИЕ ПРАВ ПРОМЫШЛЕННОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Боботухтаев Сохибджон Абдусалим

*Ташкентский государственный юридический университет независимый
исследователь, Преподаватель факультета публичного права*

abdusalimovich95@gmail.com

+998977410772



Аннотация: Актуальность гражданско-правовой ответственности по делам о нарушении прав промышленной собственности заключается в восстановлении прав потерпевшего и обеспечении ему возмещения причиненного им ущерба. Кроме того, важно урегулировать такие отношения, как возмещение вреда, причиненного нарушением закона, применение мер ответственности, восстановление прав.

Ключевые слова: промышленная собственность, ущерб, ответственность, стороны, промышленная собственность, изобретение, полезная модель, промышленные образцы.

GENERAL CONCEPT OF CIVIL LIABILITY FOR VIOLATION OF INDUSTRIAL PROPERTY RIGHTS

Bobotukhtayev Sokhibjon Abdusalim

Tashkent State Law University independent researcher, tutor of the Faculty of
Public Law

abdusalimovich95@gmail.com

+998977410772

Annotation: The relevance of civil liability in cases of infringement of industrial property rights is to restore the rights of the injured party and ensure that he receives compensation for the damage caused by him. In addition, it is important to regulate relations such as compensation for damage caused by infringement of rights, penalties, and restoration of rights.

Keywords: industrial property, damage, liability, parties, industrial property, invention, utility model, industrial designs.

Ilm-fan, yangi texnika-texnologiyalar, innovatsion ishlanmalar bugungi kunda har qanday mamlakatning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi manba hisoblanadi. Shu sababli ham ilm-fanning



asosiy ishlanmalari intellektual mulk xususan sanoat mulki sifatida huquqiy himoya ostidadir. Konstitutsiyamizning 53-moddasida mulk huquqi daxlsizligi va har tomonlama himoya qilinishi belgilab qo'yilgan. Bu bilvosita sanoat mulkiga ham taalluqlidir.

Intellektual mulk huquqlarini xususan sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzish, qonuniy jazolash usullaridan biridir va fuqarolik-huquqiy javobgarlikning umumiy tushunchasi bilan bog'liqdir.

Sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik — bu sanoat mulki obyektlarining huquqlarini buzgan shaxsni qonun oldida mas'uliyatga tortish va mulkdorning qonuniy huquqlarini himoya qilish jarayonidir. Qolaversa, fuqarolik qonunchiligi asosida, sanoat mulkiga nisbatan huquqlarni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish jarayonidir. Bunday javobgarlik, odatda, shaxslarning sanoat mulkiga nisbatan o'z huquqlarini noto'g'ri qo'llash, buzish yoki zarar yetkazish holatlarida yuzaga keladi. Bunday huquqbuzarliklar sanoat mulki sohasida, ya'ni patent, sanoat namunasi, savdo belgilari, tovar belgilariga va boshqa intellektual mulk obyektlariga nisbatan yuzaga kelishi mumkin.

Sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu sanoat mulki obyektlariga, ya'ni patentlar, foydalanuvchi sertifikatlar, savdo markalari, sanoat dizaynlari va boshqa sanoat mulkiga nisbatan huquqlarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan javobgarlikni anglatadi. Bu javobgarlik fuqarolik qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

Sanoat mulki huquqlari buzilgan holatlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy maqsadi zarar ko'rgan tomonning huquqlarini tiklash va uni o'zi tomonidan berilgan zarar uchun kompensatsiya olishini ta'minlashdir.

Bundan tashqari, huquq buzilishi natijasida quyidagi huquqiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:



- Zararning qoplash: Sanoat mulki huquqini buzgan tomon, huquq egasiga yetkazilgan zararlarni to'lashga majbur bo'ladi. Bu zarar moliyaviy yoki boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin.
- Jazo choralari: Huquq buzish natijasida davlat tomonidan ham jazo choralari (jarima, ma'lum muddatga faoliyatni to'xtatish, shaxsiy javobgarlik) belgilanishi mumkin.
- Huquqni tiklash: Huquq buzgan shaxs, qonun hujjatlariga asosan sanoat mulki huquqlarini tiklash majburiyatini o'z zimmasiga olish mumkin.

Javobgarlikning turi va miqdori ko'pincha buzilgan huquqning qanchalik jiddiy va ijtimoiy zarari borligiga qarab belgilanadi. Shuningdek, huquqni buzgan shaxsning xatti-harakati (bilgan holda yoki bexabar holda) ham javobgarlikni belgilashda muhim omil hisoblanadi.

Davlat va fuqarolik jamiyati a'zolari o'rtasidagi o'zaro javobgarlikning ta'rifi huquqiy davlatning shakllanishi uchun zarur shart sifatida tan olinishi, javobgarlik institutini umumjahon qadriyatlari sifatida tan olishni talab qildi. Bu holda huquqiy javobgarlikni keng talqin qilish yondashuvi — ijobiy javobgarlik nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rilmogda. Tor ma'noda huquqiy javobgarlik jazolash funksiyasini bajaradi va huquqbuzarlik uchun davlat tomonidan majburiy choralaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik borasida xorijiy mamlakatlarning bir qator olimlari quyidagicha fikrlarni bildirgan, xususan, O. E. Kutafin fikricha, huquqiy javobgarlik — bu davlat tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlikka nisbatan salbiy reaksiya bo'lib, aybdorga nisbatan davlat ta'sirining choralarini qo'llashdir¹. A. V. Malko nuqtai nazaridan, huquqiy javobgarlik — shaxsning noqonuniy harakatlari uchun davlat majburlov choralariga duch kelish zaruriyatidir².

¹ *Кутафин О. Е. Основы государства и права. М. : Юрист, 2002. С. 432.*

² *Малько А. В., Липинский Д. А., Маркунин Р. С. Юридическая ответственность как средство предупреждения правонарушений: актуальные проблемы // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2020. № 4. С. 7–10.*



V. Malko, D. A. Lipinskiy, R. S. Markunin fikricha, huquqiy javobgarlikning samaradorligi uning turlari va shakllarining faoliyatiga, huquqiy davlatning shakllanishiga va huquqbuzarliklarning oldini olishga bog'liqdir. Ularning fikricha, ijobiy huquqiy javobgarlik orqali huquqbuzarliklarning oldini olish "yumshoq" usullar va vositalar orqali amalga oshiriladi³.

Yuridik javobgarlik, murakkab huquqiy hodisa sifatida, salbiy va ijobiy elementlarni birlashtiradi. Ijobiy va salbiy tarkibiy qismlar o'rtasidagi dialektik o'zaro ta'sirdan kelib chiqib, ijobiy javobgarlik huquqbuzarliklarni ham, salbiy huquqiy javobgarlikni ham oldini olishi mumkinligini ko'rsatadi. N. I. Matuzov, ijobiy (prospektiv) javobgarlik tarafdori bo'lib, doimiy qonuniy xulq-atvor va noqonuniy harakatlarning yo'qligiga e'tibor qaratadi, bu esa shaxsning jamiyat oldidagi javobgarligini ko'rsatadi⁴. B. T. Bazylev, L. B. Malinin va L. B. Smirnov ijobiy huquqiy javobgarlikning mohiyatini ko'rib chiqar ekan, haqiqiy qonuniy xulq-atvorda qonun va huquqiy normalarga ongli ravishda rioya qilish mavjudligini ta'kidlaydilar⁵. D.A.Lipinskiy esa huquqiy javobgarlikning makro darajasidagi muammolarga, ijobiy javobgarlikka alohida e'tibor qaratadi⁶.

Umuman olganda, sanoat mulki obyektlariga doir fuqarolik-huquqiy javobgarlikning umumiy tushunchasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Huquqbuzarlik: Bu, sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquqlarga beparvo yoki qasddan ta'sir qilishni anglatadi. Masalan, sanoat mulkini buzish, noto'g'ri foydalanish yoki boshqa qonunlarga zid harakatlar qilish huquqbuzarlik hisoblanadi.
- Zarar yetkazish: Sanoat mulki obyektlariga huquqbuzarlik natijasida mulkni buzish, shikastlash yoki yo'qotish holatlarida zarar yetadi. Zarar, moliyaviy yoki fizik jihatdan bo'lishi mumkin.

³ Малько А. В., Липинский Д. А., Маркунин Р. С. Указ. соч. С. 13–14.

⁴ Матузов Н. И. Правовая система и личность. Саратов : Изд-во Саратовского гос. ун-та, 1987. 293 с.

⁵ Малинин Л. Б., Смирнов Л. Б. Уголовно-исполнительное право. М. : Межрегиональный институт экономики и права, Контракт, Волтер Клувер, 2009. 368 с.

⁶ Липинский Д. А., Репетева О. Е., Романова В. В. Институт юридической ответственности. М. : РИОР, Инфра-М, 2019. 230 с.



- **Javobgarlik:** Sanoat mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik fuqarolik qonunchiligi asosida belgilanishi mumkin. Bu javobgarlik, zararni qoplash, mulkni asl holiga qaytarish yoki zararni to'liq yoki qisman moliyaviy kompensatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

- **Javobgarlikning shaxsiy xususiyati:** Fuqarolik-huquqiy javobgarlik odatda shaxsiy xususiyatga ega, ya'ni javobgarlik huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga yuklanadi.

- **Zararni qoplash:** Huquqbuzar shaxslar sanoat mulkiga yetkazilgan zararni to'lashga majbur bo'lishadi. Zararni qoplash, shu jumladan, to'lovlar, mulkni qayta tiklash yoki boshqa zararlarni bartaraf etishga qaratilgan choralarni amalga oshirishni anglatadi. Bu zarar, bevosita yo'qotishlar (masalan, daromadning kamayishi) va bilvosita yo'qotishlar (masalan, imidjning buzilishi) ni o'z ichiga olishi mumkin.

- **Fuqaro huquqlarining himoyasi:** Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning maqsadi, sanoat mulki obyektlariga egalik qilayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishdir. Bu mulk egalari uchun adolatli va qonuniy himoya mexanizmini yaratadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni amalga oshirish uchun zarar ko'rgan tomon sudga murojaat qilishi mumkin. Sud huquqbuzarlikni aniqlab, zarar miqdorini belgilaydi va uni qoplashni talab qilishi mumkin.

- **Qonuniy choralar:** Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni ta'minlash uchun qonunchilikda belgilangan huquqni muhofaza qilish organlariga yoki sudga murojaat qilish yoxud boshqa huquqiy choralarni ko'rish mumkin. Odatda, zarar yetkazgan shaxsdan to'lovlarni, jarimalarni yoki boshqa moliyaviy qoplamalarni talab qilish uchun fuqarolik sudlariga murojaat qilinadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning bir turini anglatib, huquqbuzarliklarning mulkiy oqibatlarini belgilash va bartaraf erish maqsadida qo'llaniladi.

Sanoat mulki obyektlariga zarar yetkazish, sanoat mulkini ijaraga olish, sotish yoki boshqa shartnoma asosida foydalanish shartlarining buzilishi, beparvo yoki ehtiyotsiz bilan foydalanish natijasida vujudga kelishi mumkin.



Milliy qonunchiligimizda Sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzganlik uchun fuqarolik, ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik turlari belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Jinoyat kodeksi, Bojxona kodeksi, Soliq kodeksi va boshqa qator qonunlarda yuridik asoslar orqali mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida fuqarolarning ijod erkinligi o'z ifodasini topgan bo'lib, yuqorida keltirilgan qonunchilik normalari konstitutsiyaning ushbu moddasi negizida va unga muvofiq qabul qilinadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 1082-moddasida, sanoat mulki obyektlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish ularga bo'lgan huquq patent berilgan taqdirdagina muhofaza qilinishi belgilangan bo'lib, mazkur kodeksning 1090-moddasiga binoan, patentni buzish patent egasining talabi bilan to'xtatilishi, qoidabuzar esa patent egasiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplashi shartdir.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida esa, yuqorida fuqarolik kodeksida belgilangan patent egasiga yetkazilgan zararni bartaraf etishdan tashqari, davlat tomonida jarima jazosi qo'llash ham nazarda tutilgan. Xususan, mazkur kodeksning 177²-moddasida sanoat mulki obyektlariga bo'lgan huquqlarni buzish quyidagicha ma'muriy javobgarlikka olib keladi: tegishli patentlangan ixtironi, foydali modelni, sanoat namunasini o'z ichiga olgan mahsulot yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo'llash, import qilish, sotishga taklif etish, sotish, fuqarolik muomalasiga boshqa yo'sinda kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish, shuningdek ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni qo'llash yoxud bevosita ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usul bilan tayyorlangan mahsulotni fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday



huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 149-moddasida, Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish ya'ni, tafakkur mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan. Mazkur moddada, sanoat mulki obyektlarini yaratgan shaxsning roziligisiz obyekt ro'yxatdan o'tkazilmasdan oldin ya'ni rasmiy patent berilishidan oldin boshqa shaxslarga oshkor qilganlik uchun ham jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Oddiy qilib aytganda, sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzganlik uchun yuqorida keltirilgan ma'muriy va jinoiy javobgarlikning asosiy farqi shundaki, ma'muriy javobgarlikka tortish uchun sanoat mulki obyektlari tegishli tartibda vakolatli idora tomonidan patent berilgan bo'lishi zarur. Jinoiy javobgarlikka tortishda esa, yuqorida keltirilgan harakatlar patent berilish jarayonida amalga oshirilgan bo'lishi ya'ni ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasi yaratilgan bo'lib bu haqda tegishli rasmiy idoralarga patent olishning dastlabki harakatlari boshlangan bo'lishi zarur. Aks holda ushbu obyektlarni dastlab kim yaratganini isbotlash mushkul masala hisoblanadi.

Umuman olganda, sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzganda qo'llaniladigan javobgarlik turlari huquqlarni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, sanoat mulkiga yetkazilgan zararlarni kamaytirishga, mulkni saqlashga va undan xavfsiz foydalanishga hamda sanoat faoliyatini samarali olib borishga yordam beradi.

Huquqiy asos sifatida, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Sanoat mulki huquqlari to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy



hujjatlar bilan tartibga solinadi. Huquqbuzarlikni aniqlash va javobgarlikni belgilashda sudlar ushbu qonunlar asosida qaror qabul qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat mulki obyektlariga doir huquqlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik, qonun bilan belgilangan huquqlarni buzgan shaxslar (jismoniy yoki yuridik) uchun qo'llaniladigan huquqiy choralar majmuasini anglatadi. Bu javobgarlik, asosan, moddiy zararni qoplash, shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki muayyan huquqlarni noqonuniy ravishda egallash kabi holatlar uchun qo'llaniladi hamda zarar ko'rgan tomonning huquqlarini tiklash va zararni qoplash maqsadida qo'llaniladigan huquqiy mexanizmdir. Umuman olganda, fuqarolik-huquqiy javobgarlik sanoat mulkiga yetkazilgan zararni, mulk huquqlarini va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishga xizmat qiladi. Bu tizim orqali sanoat mulkiga bo'lgan huquqiy munosabatlar aniq belgilab qo'yiladi va har qanday huquqbuzarlik uchun tegishli jazolar belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кутафин О. Е. Основы государства и права. М. : Юрист, 2002. С. 432.
2. Малько А. В., Липинский Д. А., Маркунин Р. С. Юридическая ответственность как средство предупреждения правонарушений: актуальные проблемы // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2020. № 4. С. 7–10.
3. Малько А. В., Липинский Д. А., Маркунин Р. С. Указ. соч. С. 13–14.
4. Матузов Н. И. Правовая система и личность. Саратов : Изд-во Саратовского гос. ун-та, 1987. 293 с.
5. Малинин Л. Б., Смирнов Л. Б. Уголовно-исполнительное право. М. : Межрегиональный институт экономики и права, Контракт, Волтер Клувер, 2009. 368 с.
6. Липинский Д. А., Репетева О. Е., Романова В. В. Институт юридической ответственности. М. : РИОР, Инфра-М, 2019. 230 с.